



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O'ZGARISHIGA TA'SIRI TAHLILI.....	45
Ochilov Laziz Siddiqovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI	54
Sanakulova Iroda Abrorovna	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)	61
Kozokov Najmiddin Isomiddinovich	
XALQARO OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA UNIVERSITET BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL AVTONOMIYA, HISOBDOIRLIK VA STRATEGIK BOSHQARUV MODELLARI	68
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
THREE GENERATIONS OF REFORM: GOVERNANCE PARADIGMS AND THE MEASUREMENT GAP IN UZBEKISTAN'S SUSTAINABLE DEVELOPMENT TRANSITION	76
Salakhutdinova Yulduz Golibovna	
ГЕНЕРАТИВНЫЙ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНТЕНТ-МАРКЕТИНГА	82
Умарова Нозанин Алишерзода	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	88
Sapayev Abduljalol Odinayevich	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV TIZIMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	96
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
UMUMIY IQTISODIY MUVOZANAT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI.....	102
Murodov Alisher Murodjon o'g'li	
РОЛЬ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	106
Уралова Сожида Анвар кизи	



JIZZAX VILOYATI TURIZMINING RIVOJLANISH DINAMIKASI, TUZILMASI VA ISTIQBOLLARI (2016–2024-YILLAR)	112
Mamadiyrov Adhamjon Qo'chqar o'g'li	
KREATIV INDUSTRIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	121
Ulug'bekov Sardorbek Ulug'bekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	128
Turdiyev Eralijon Muxtarovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BUDJETDAN TASHQARI TUSHUMLAR AUDITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	134
Abduraxmonov Saidqosimxon Abduhamid o'g'li	
CHAKANA BANK XIZMATLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING NAZARIY JIHATLARI	138
Asqarov Fayzullo G'iyosiddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BILIM VA MALAKALARNI RAQAMLI BAHOLASH TIZIMINING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	148
Abdiyev Nosir Raximovich	
Muzaffarova Mohira Nuraliyevna	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA MOLIYAVIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	154
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINING HUDUDII RIVOJLANISH DARAJASINI QIYOSIY BAHOLASH	160
Omonova Nigora Bahodir qizi	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI	167
Iskandarov Xurshid Iskandarovich	
TEXNOLOGIK AVLOD ALMASHINISHI SHAROITIDA ALOQA KORXONALARI TOVAR-MODDIY ZAXIRALARINING QADRSIZLANISHINI HISOBGA OLISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Jamilov Jushqin Jonon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH DARAJASINI ANFIS ASOSIDA MODELLASHTIRISH	181
Avazova Nafisa Namazovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH: O'ZSME-DDI MODULINING METODOLOGIYASI VA AMALIY JORIY ETISH MEXANIZMI	186
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	193
Kenjaeva Durdona Ravshan qizi	
ФАКТОРНЫЙ АНАЛИЗ КАК ИНСТРУМЕНТ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	198
Аюбов Ойбек Улугбек угли	
YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH	204
Raximov Sarvarbek Abdumutalibjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH, ULARNI MOLIYALASHTIRISHNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI	211
Umarova Gulzodxon Qodirbekovna	



MEHMONXONA XO'JALIKLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL MEXANIZMI VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	216
Rahimov Hasan Abdusaitovich	
NOMODDIY AKTIVLAR BO'YICHA OSHKORALIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA MILLIY HISOBNI XALQARO STANDARTLAR BILAN UYG'UNLASHTIRISH.....	221
Ishankulov Izzatilla Nurillayevich	
SANOATLASHTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA UNUMDORLIK OMILI.....	226
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
INNOVATSION O'ZGARISHLAR ASOSIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHNING 2030-YILGACHA MO'LJALLANGAN PROGNOZ SSENARIYLARI VA ULARNING SEZGIRLIK TAHLILI	232
Amrullayev Dadaxon	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ УЯЗВИМОСТИ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ И СТРУКТУРНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	237
Эркинбаева Камила Жавланбековна	
TIJORAT BANKLARI BIZNES MODELINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	243
Sh. Nurullayeva	
S. Narimonov	
OLIY TA'LIMDA RAQAMLI EKOTIZIMNI SHAKLLANTIRISHDAGI XAVF-XATARLAR (RISKLAR) VA BOSHQARUV MUAMMOLARI.....	249
Pirmanov Oxunjon Baxridin o'g'li	
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	256
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Хакимов Хафизбек Хамза угли	
Джумабаева Гаянэ Рахимовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOTRANSPORT XIZMATLARI BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI EKOLOGIK-IQTISODIY OMILLAR ASOSIDA OSHIRISH YO'LLARI	263
Sultanov Sulaymon Safarboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	269
Abdushukurova Mehribonu Dilmurod qizi	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH, YER RESURLARIDAN FOYDALANISH VA AHOLINING XARID QOBILIYATI MUVOFIQLIGINI BAHOLASH	276
Ramazonov Zafar Ulug'bekovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СТРАХОВОГО РЫНКА	281
Мирахмедова Мафтуна Ибрагимовна	
TIJORAT BANKLARIDA FOIZ SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AMALIY JIHATLARI.....	288
Orifova Dilnoza Obid qizi	
XALQARO KREDIT LINIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	295
Aliyev Bekzod Ilhomovich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ УЧЁТА И АНАЛИЗА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ	301
Холикова Дурдона Бунёдjon кизи	



TOSHKENT VILOYATIDA ISHLAB CHIQARISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HUDUDIIY DIFFERENSIATSIYASI.....	308
Salimov Burxoniddin	



TOSHKENT VILOYATIDA ISHLAB CHIQRARISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HUDUDIIY DIFFERENSIATSIYASI

Salimov Burxoniddin

Namangan davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Abstract. The article assesses the development trends of small business in the manufacturing sector of Tashkent Region and its territorial differentiation. The purpose of the study is to identify the relationship between the volume of industrial output produced by small businesses, their share in total industrial production, investment activity, and territorial specialization. Dynamic, comparative, structural, and index methods were applied. According to official data, the industrial output of small business entities increased from UZS 5,602.7 billion in January–March 2024 to UZS 7,946.8 billion in the same period of 2025. Although the nominal volume increased by 41.8%, the official growth rate, taking into account the effects of prices and statistical methodology, amounted to 104.3%; the share of small business in total industrial production was 26.0%. The results indicate that industrial activity is higher in areas located close to transport and logistics infrastructure, energy facilities, and large enterprises generating demand, while it is lower in districts with limited access to resources and markets. It is proposed to classify the territories into the following groups: “industrial core,” “agro-industrial processing,” “influence of the Tashkent agglomeration,” and “industrialization reserve.”

Keywords: small business, manufacturing, industry, territorial differentiation, location, specialization, Tashkent Region.

Annotatsiya. Maqolada Toshkent viloyati ishlab chiqarish sohasida kichik biznesning rivojlanish tendensiyalari va hududiy differentsiatsiyasi baholangan. Tadqiqotning maqsadi kichik biznes sanoat mahsuloti hajmi, jami sanoatdagi ulushi, investitsiya faolligi va hududiy ixtisoslashuv o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashdan iborat. Dinamik, qiyosiy, tarkibiy va indeks usullari qo'llanildi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat mahsuloti 2024-yil yanvar–martda 5 602,7 mlrd so'mdan 2025-yilning shu davrida 7 946,8 mlrd so'mga yetgan. Nominal hajm 41,8 foizga oshgan bo'lsa-da, narx va statistik metodologiya ta'sirini hisobga olgan rasmiy o'sish sur'ati 104,3 foizni tashkil etgan; kichik biznesning jami sanoatdagi ulushi 26,0 foiz bo'lgan. Natijalar sanoat faolligi transport-logistika, energiya va yirik korxonalar buyurtmalariga yaqin hududlarda yuqori, resurs va bozorga kirish cheklangan tumanlarda esa pastroq bo'lishini ko'rsatadi. Hududlarni “sanoat yadrosi”, “agrosanoat qayta ishlash”, “Toshkent aglomeratsiyasi ta'siri” va “sanoatlashuv zaxirasi” guruhlariga ajratish taklif qilindi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, ishlab chiqarish, sanoat, hududiy differentsiatsiya, joylashtirish, ixtisoslashuv, Toshkent viloyati.

Аннотация. В статье оценены тенденции развития малого бизнеса в производственной сфере Ташкентской области и его территориальная дифференциация. Цель исследования заключается в выявлении взаимосвязи между объемом промышленной продукции малого бизнеса, его долей в общем объеме промышленности, инвестиционной активностью и территориальной специализацией. В исследовании применены динамический, сравнительный, структурный и индексный методы. Согласно официальным данным, объем промышленной продукции субъектов малого предпринимательства увеличился с 5 602,7 млрд сумов в январе–марте 2024 года до 7 946,8 млрд сумов за аналогичный период 2025 года. Несмотря на то что номинальный объем увеличился на 41,8%, официальный темп роста с учетом влияния цен и статистической методологии составил 104,3%; доля малого бизнеса в общем объеме промышленности составила 26,0%. Результаты показывают, что промышленная активность выше на территориях, расположенных вблизи транспортно-логистической инфраструктуры, энергетических объектов и крупных предприятий-заказчиков, тогда как в районах с ограниченным доступом к ресурсам и рынкам она ниже. Предложено классифицировать территории по группам: «промышленное ядро», «агропромышленная переработка», «влияние Ташкентской агломерации» и «резерв индустриализации».

Ключевые слова: малый бизнес, производство, промышленность, территориальная дифференциация, размещение, специализация, Ташкентская область.



KIRISH

Ishlab chiqarish sohasida kichik biznes hududiy bandlik, mahalliy xomashyoni qayta ishlash va yirik sanoat korxonalari atrofida kooperatsiya zanjirlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Toshkent viloyatining poytaxt bozoriga yaqinligi, Angren–Olmaliq–Chirchiq sanoat belbog'i, avtomobil va temir yo'l tarmoqlari ushbu jarayon uchun katta imkoniyat yaratadi.

Biroq viloyat hududlari ishlab chiqarish infratuzilmasi, energiya ta'minoti, mehnat malakasi, yer va bino resurslari hamda sotish bozoriga kirish bo'yicha bir xil emas. Natijada kichik sanoat korxonalari hududiy jihatdan nomutanosib joylashadi, ayrim tumanlarda mavjud xomashyo va mehnat zaxiralari yetarli qo'shilgan qiymat yaratmaydi.

2025-yilda qabul qilingan PF–50-son Farmon hududlarda biznes muhitini yaxshilash, yangi biznes tashabbuslarni va tashqi bozorlarga chiqishni qo'llab-quvvatlash vazifalarini belgiladi [5]. Kichik sanoat zonalarini to'g'risidagi qonun esa tayyor infratuzilmali ishlab chiqarish maydonlarini rivojlantirishning institutsional asosini yaratadi [6].

Tadqiqotning maqsadi — Toshkent viloyatida ishlab chiqarish kichik biznesining dinamikasi va hududiy farqlarini baholash hamda differentsiatsiyalangan rivojlantirish yo'nalishlarini asoslash. Gipotezaga ko'ra, ishlab chiqarish kichik biznesining o'sishi korxonalar sonidan ko'ra infratuzilma, kooperatsiya va bozorga kirishning birgalikdagi sifatiga ko'proq bog'liq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznesning iqtisodiy taraqqiyot, aholi bandligi, raqobat muhitini shakllantirish hamda hududlarning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishdagi o'rni xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlarda kichik biznesning rivojlanishi nafaqat korxonalarning ichki resurslari, balki ularning hududiy joylashuvi, ishlab chiqarish infratuzilmasi, bozorga yaqinligi, kooperatsiya aloqalari va institutsional muhit bilan ham chambarchas bog'liq ekanligi ta'kidlanadi.

Kichik biznesning hududiy rivojlanishini tushuntiruvchi dastlabki nazariy yondashuvlardan biri A. Marshallning sanoat hududlari konsepsiyasi hisoblanadi. Olim muayyan hududda ishlab chiqarish korxonalarining to'planishi natijasida ixtisoslashgan mehnat bozori, bilim va texnologiyalar almashinuvi hamda umumiy infratuzilmadan foydalanish imkoniyatlari shakllanishini asoslab bergan. Mazkur yondashuv kichik ishlab chiqarish korxonalarining hududiy kooperatsiyasi va aglomeratsiya samaralarini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan klaster nazariyasida geografik jihatdan yaqin joylashgan korxonalar, yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, ilmiy-ta'lim muassasalari va davlat boshqaruvi organlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar hududiy raqobatbardoshlikning muhim omili sifatida baholanadi. Ushbu yondashuv kichik biznes subyektlarini yirik sanoat korxonalari atrofida rivojlantirish, mahalliy subkontrakt tizimini kengaytirish va hududiy ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirishning ilmiy asoslarini belgilaydi.

Z. Acs, D. Audretsch, M. Carree, A. van Stel va R. Thurik tadqiqotlarida kichik biznes va tadbirkorlik faolligining innovatsiyalar, tarmoq tarkibi va iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi tahlil qilingan. A. van Stel va M. Carree tadqiqotlarida ishlab chiqarish sohasidagi tadbirkorlik faolligining iqtisodiy o'sishga ta'siri xizmat ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik ta'siridan farq qilishi ko'rsatilgan. Bu esa kichik biznesning tarmoq xususiyatlarini alohida hisobga olish zarurligini anglatadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda kichik korxonalar samaradorligining hududiy muhitga bog'liqligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. A. Amato va hammualliflar 97 mingdan ortiq ishlab chiqarish korxonasi ma'lumotlari asosida korxonalar samaradorligidagi tafovutlarning muayyan qismi hududiy sharoitlar bilan izohlanishini aniqlagan. Ularning natijalariga ko'ra, raqobatbardosh hududiy muhit, ayniqsa, mikrofirmalar faoliyatiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

P. Tiwasing, Y. R. Kim va T. Akinremi kichik va o'rta biznes samaradorligidagi hududiy tafovutlarni o'rganib, korxonaning ichki resurslari bilan bir qatorda uning joylashuvi, mahalliy moliyalashtirish imkoniyatlari, mehnat resurslari va raqamli infratuzilma holati ham muhim ahamiyatga ega ekanligini aniqlagan. M. Andersson, J. Eklund va A. Tsvetkova tadqiqotlarida esa chekka hududlarda faoliyat yurituvchi kichik va o'rta korxonalar investitsiyalarni moliyalashtirishda o'z mablag'lariga ko'proq bog'liq bo'lishi ko'rsatilgan. Bu hududlar bo'yicha moliyaviy imkoniyatlarning notekis taqsimlanishi kichik biznes rivojlanishidagi differentsiatsiyani kuchaytirishi mumkinligini ko'rsatadi.

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan A. V. Busigin, A. I. Muravyov, V. Ya. Gorfinkel, V. A. Shvandara, A. B. Krutik, M. G. Lapusta va A. Yu. Chepurenskiy kichik biznesni tashkil etish, uning iqtisodiy mohiyati, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi hamda hududiy tadbirkorlik muhitini rivojlantirish masalalarini tadqiq etgan. Ushbu izlanishlarda kichik korxonalar faoliyatiga ta'sir qiluvchi moliyaviy, tashkiliy, institutsional va infratuzilmaviy



omillar tizimlashtirilgan. Biroq mazkur tadqiqotlarning aksariyatida hududiy differentsiatsiya alohida tumanlar kesimida emas, balki mamlakat yoki yirik mintaqalar miqyosida baholangan.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning nazariy-uslubiy asoslari S. S. G'ulomov, B. Yu. Xodiyev, M. Q. Pardayev, B. B. Berkinov, M. S. Qosimova, B. A. Begalov, A. O'lmasov, N. H. Haydarov, A. Sh. Bekmurodov va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida kichik biznesning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari, aholi bandligini ta'minlash, raqobat muhitini shakllantirish, investitsion faollikni oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslangan.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan kichik biznes rivojiga ta'sir qiluvchi soliq, kredit, investitsiya, mulkiy, tashkiliy va institutsional omillar ham keng o'rganilgan. Shuningdek, kichik biznesning yalpi hududiy mahsulot, sanoat ishlab chiqarishi, eksport, investitsiya va bandlikdagi ulushini oshirish yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Biroq mavjud ishlarda kichik biznes ko'pincha yaxlit iqtisodiy sektor sifatida o'rganilib, uning aynan ishlab chiqarish segmenti, hududiy joylashuvi va tumanlararo rivojlanish tafovutlari o'zaro bog'liq holda yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Toshkent viloyatiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar va rasmiy tahliliy materiallarda hududning sanoat salohiyati, yirik korxonalar faoliyati, investitsiya loyihalari, kichik sanoat zonalar hamda kichik biznesning viloyat iqtisodiyotidagi o'rni yoritib kelinmoqda. Angren, Olmaliq va Chirchiq sanoat markazlari, Toshkent aglomeratsiyasiga yaqin Qibray, Zangiota va Toshkent tumanlari hamda agrar ixtisoslashgan Bo'ka, Oqqo'rg'on, Piskent va Chinoz tumanlarining ishlab chiqarish imkoniyatlari bir-biridan sezilarli farq qiladi.

Shunga qaramay, mavjud ilmiy ishlarda Toshkent viloyatining tuman va shaharlari kesimida ishlab chiqarish sohasidagi kichik biznesning rivojlanish tendensiyalarini yagona ko'rsatkichlar tizimi asosida kompleks baholash, hududiy differentsiatsiyani aniqlash, hududlarni funksional guruhlariga ajratish hamda har bir guruh uchun tabaqalashtirilgan rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur tadqiqotning ilmiy yo'nalishi aynan ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2024 va 2025-yillar birinchi choragi, 2024-yil birinchi yarim yilligi bo'yicha ochiq ma'lumotlari, Milliy statistika qo'mitasi materiallari va normativ hujjatlardan foydalanildi [1–7], mazkur maqola matnini tayyorlashda esa sun'iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha foydalanildi. Ko'rsatkichlar davri va o'lchov birligi bir xil bo'lgan hollarda qiyoslandi.

Nominal hajm o'sishi $G_n = (Y_2/Y_1 - 1) \times 100$ formulasi bilan hisoblandi. 7 946,8/5 602,7 natijasi 41,8 foiz nominal o'zgarishni beradi. Bu ko'rsatkich rasmiy 104,3 foiz o'sish sur'atining o'rnini bosmaydi: rasmiy indeks solishtirma narxlar va statistik qayta baholashga tayanishi mumkin.

Hududiy tahlil uchun to'rt mezonli konseptual indeks taklif etildi: sanoat bazasi — 30%, transport va bozorga kirish — 25%, xomashyo/kooperatsiya — 25%, mehnat va infratuzilma — 20%. Tumanlar bo'yicha to'liq birlamchi ma'lumotlar mavjud bo'lmagani uchun ushbu indeks raqamli reyting emas, hududiy siyosatni tuzish ramkasi sifatida qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Kichik biznes sanoat mahsulotining dinamikasi

Rasmiy ma'lumotlar 2025-yil birinchi choragida kichik tadbirkorlikning sanoat mahsuloti 7 946,8 mlrd so'mga yetganini ko'rsatadi. Bu jami viloyat sanoat mahsulotining 26,0 foiziga teng. Demak, sanoatda yirik korxonalar ustunligi saqlangan bo'lsa-da, kichik biznes qiymat zanjirining to'rtidan bir qismini shakllantirmoqda.

1-jadval
Kichik tadbirkorlik sanoatining asosiy ko'rsatkichlari [1]

Ko'rsatkich	2024 I chorak	2025 I chorak	Tahliliy xulosa
Sanoat mahsuloti, mlrd so'm	5 602,7	7 946,8	Nominal hajm 41,8% oshgan
Rasmiy o'sish sur'ati, %	—	104,3	Solishtirma bahoda mo'tadil o'sish
Jami sanoatdagi ulush, %	—	26,0	Yirik sanoat bilan kooperatsiya rezervi
Asosiy kapital investitsiyasida kichik biznes, %	—	58,9	Kelgusi ishlab chiqarish uchun faol baza



Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning I choragida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7 946,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 2 344,1 mlrd so'mga yoki 41,8 foizga oshgan. Mazkur natija sanoat sohasida iqtisodiy faollik kuchayganini ko'rsatsa-da, nominal va real o'sish ko'rsatkichlari o'rtasida sezilarli tafovut mavjud.

Rasmiy o'sish sur'atining 104,3 foizni tashkil etishi solishtirma narxlarda ishlab chiqarish hajmi 4,3 foizga ko'payganini anglatadi. Demak, 41,8 foizlik nominal o'sishning muayyan qismi mahsulot narxlarining oshishi, inflyatsion jarayonlar va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tarkibidagi qiymat o'zgarishlari bilan bog'liq. Shu sababli sanoat rivojlanishini baholashda faqat nominal hajmga emas, balki real ishlab chiqarish dinamikasiga ham e'tibor qaratish lozim.

Tahlil qilinayotgan subyektlarning jami sanoat mahsulotidagi ulushi 26,0 foizga teng bo'lgan. Bu sanoat mahsulotining qariyb to'rtadan bir qismi ular hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Biroq mazkur ulushni oshirish uchun yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, mahalliyashtirish loyihalariga jalb qilish, sanoat klasterlariga integratsiyalash hamda yangi sotish bozorlariga chiqishni rag'batlantirish zarur.

2. Hududiy differentsiatsiyaning iqtisodiy mazmuni

Hududiy farqlarni faqat korxonalar soni bilan o'lchash yetarli emas. Angren, Olmaliq va Chirchiq yirik sanoat, energiya va muhandislik kompetensiyalariga yaqinligi bilan; Bekobod metallurgiya va qurilish materiallari zanjiri bilan; Qibray, Zangiota va Toshkent tumani poytaxt iste'mol bozori va logistika bilan; Bo'ka, Oqqo'rg'on, Piskent va Chinoz esa agrosanoat xomashyosi bilan farqlanadi.

2-jadval
Toshkent viloyati hududlarini funksional guruhlash [1]

Hududiy tip	Namunali hududlar	Ustuvor ishlab chiqarish	Siyosat vositasi
Sanoat yadrosi	Angren, Olmaliq, Chirchiq	Metall, kimyo, elektrotexnikaga kooperatsiya	Subkontrakt, standart va texnologik markaz
Aglomeratsiya ta'siri	Qibray, Zangiota, Toshkent tumani	Oziq-ovqat, qadoqlash, mebel, logistika	Bino, logistika va shahar bozoriga kirish
Agrosanoat belbog'i	Bo'ka, Oqqo'rg'on, Piskent, Chinoz	Saqlash, qayta ishlash, oziq-ovqat	Sovuq zanjir va kooperativ xaridi
Sanoatlashuv zaxirasi	Infratuzilmasi zaifroq tumanlar	Mahalliy material va mehnatga mos mikroishlab chiqarish	KSZ, energiya va kasbga tayyorlash

Jadvalda taklif etilgan funksional guruhlash Toshkent viloyatida kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatini hududlarning o'ziga xos iqtisodiy imkoniyatlariga moslashtirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv barcha tuman va shaharlarda bir xil vositalardan foydalanish o'rninga, har bir hududning resurslari, ishlab chiqarish tajribasi va bozor imkoniyatlaridan kelib chiqib, manzilli choralarni belgilash imkonini beradi.

Sanoat yadrosi sifatida ajratilgan Angren, Olmaliq va Chirchiq shaharlari yirik sanoat korxonalari, rivojlangan muhandislik infratuzilmasi hamda malakali mehnat resurslari bilan tavsiflanadi. Ushbu hududlarda kichik biznes subyektlarini mustaqil yakuniy mahsulot ishlab chiqarishdan tashqari, yirik korxonalarga butlovchi qismlar, ehtiyot qismlar va ishlab chiqarish xizmatlarini yetkazib berishga yo'naltirish samarali hisoblanadi. Buning uchun subkontrakt tizimini rivojlantirish, mahsulot sifatini sertifikatlash va texnologik markazlar xizmatlaridan foydalanishni kengaytirish zarur.

Aglomeratsiya ta'siridagi hududlar poytaxt bozoriga yaqinligi, aholining yuqori xarid qobiliyati va rivojlangan transport aloqalari bilan ajralib turadi. Qibray, Zangiota va Toshkent tumanlarida oziq-ovqat, qadoqlash, mebel ishlab chiqarish, omborxona hamda logistika xizmatlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit mavjud. Mazkur hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ishlab chiqarish binolarini ajratish, logistika xarajatlarini kamaytirish va Toshkent shahri bozoriga kirishni yengillashtirishga qaratilishi lozim.

Agrosanoat belbog'i tarkibidagi Bo'ka, Oqqo'rg'on, Piskent va Chinoz tumanlarida qishloq xo'jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash muhim rivojlanish yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu hududlarda meva-sabzavot, go'sht, sut va boshqa mahsulotlarni saralash, saqlash, qadoqlash hamda qayta ishlash korxonalarini tashkil etish qo'shilgan qiymatni oshiradi. Sovuq zanjir infratuzilmasi va kooperativ xarid tizimining shakllantirilishi mahsulot yo'qotishlarini kamaytirib, ishlab chiqaruvchilarning barqaror bozorga chiqishini ta'minlaydi.



Sanoatlashuv zaxirasiga ega hududlarda asosiy e'tibor mahalliy xomashyo va mehnat resurslariga mos mikroishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilishi kerak. Bunday tumanlarda ishlab chiqarish infratuzilmasining nisbatan zaifligi tadbirkorlik loyihalarining rivojlanishini cheklashi mumkin.

Toshkent viloyati hududlarini funksional guruhlash ishlab chiqarish faoliyatini oqilona joylashtirish, hududlararo tafovutlarni kamaytirish va mavjud salohiyatdan samarali foydalanishga imkon beradi. Sanoat yadrolarida kooperatsiya va subkontrakt tizimi, aglomeratsiya hududlarida bozor va logistika imkoniyatlari, agrosanoat belbog'ida qayta ishlash va sovuq zanjir, infratuzilmasi zaif hududlarda esa kichik sanoat zonalari hamda kasbiy tayyorgarlik asosiy rivojlantirish vositalari bo'lishi lozim. Bunday tabaqalashtirilgan siyosat hududlarda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik subyektlarining barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Natijalar aglomeratsiya iqtisodiyoti nazariyasiga mos: korxonalar bozor, yetkazib beruvchi, malaka va infratuzilma yaqin joyda to'planganda tranzaksiya xarajati pasayadi [8; 9]. Biroq haddan tashqari konsentratsiya yer narxi, transport tirbandligi va ekologik bosimni oshiradi.

Kichik sanoat zonalari infratuzilma to'sig'ini kamaytiradi, ammo rezident tanlash faqat investitsiya hajmiga asoslansa, hudud ixtisoslashuvi shakllanmaydi. Rezidentlar o'rtasida xomashyo, xizmat va buyurtma aloqasi bo'lishi, zona boshqaruvchisi esa maydon ijarachisi emas, kooperatsiya operatori bo'lishi kerak.

Tadqiqot cheklovi tumanlar kesimida ishlab chiqarish kichik biznesining bir xil formatdagi to'liq ochiq ma'lumotlari mavjud emasligidir. Keyingi bosqichda korxona darajasida geokodlangan ma'lumot, elektr uzilishlari, logistika vaqti va mehnat malakasi bo'yicha so'rovnoma o'tkazish zarur.

Siyosiy norozilik mavjud emas. Bu qismda qonun yoki normativ-huquqiy hujjat ham keltirilmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Toshkent viloyatida kichik biznes sanoat mahsuloti nominal jihatdan tez o'sgan, biroq rasmiy real o'sish mo'tadil bo'lgan. Jami sanoatdagi 26 foizlik ulush kichik biznesning yirik sanoat bilan kooperatsiyasi va hududiy diversifikatsiyasi uchun katta rezerv mavjudligini ko'rsatadi.

1. Har bir tuman uchun sanoat ixtisoslashuv pasportini ishlab chiqish;
2. kichik sanoat zonalari rezidentlarini mahalliy qiymat zanjiriga qo'shilish mezonini bo'yicha tanlash;
3. yirik korxonalarning ochiq subkontrakt buyurtmalari elektron platformasini joriy etish;
4. agrosanoat tumanlarida sovuq zanjir, laboratoriya va umumiy qadoqlash markazlarini rivojlantirish;
5. hududiy monitoringda korxona sonidan tashqari mehnat unumdorligi, eksport, mahalliyashtirish va 1 ish o'rniga investitsiyani qo'llash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Toshkent viloyati statistika boshqarmasi. *Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari: 2025-yil yanvar–mart* [Elektron resurs]. – Toshkent, 2025. – URL: https://www.toshvilstat.uz/uploads/docs/pres%20reliz%202025/mb_mart_2025.pdf (murojaat sanasi: 19.08.2026).
2. Toshkent viloyati statistika boshqarmasi. *Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti: 2024-yil yanvar–mart* [Elektron resurs]. – Toshkent, 2024. – URL: <https://www.toshvilstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/13550-nashr-783> (murojaat sanasi: 19.08.2026).
3. Toshkent viloyati statistika boshqarmasi. *2024-yil yanvar–iyun oylarida kichik tadbirkorlik sanoat mahsuloti* [Elektron resurs]. – Toshkent, 2024. – URL: <https://toshvilstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/14882-nashr-1425> (murojaat sanasi: 19.08.2026).
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik: 2024-yil yanvar–dekabr* [Elektron resurs]. – Toshkent, 2025. – URL: https://stat.uz/img/uz__mb-press-reliz-kopiya_p64716.pdf (murojaat sanasi: 19.08.2026).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF–50-son “Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – LexUZ. – URL: <https://lex.uz/docs/-7444738> (murojaat sanasi: 19.08.2026).
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 134-son “Kichik sanoat zonalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – LexUZ. – URL: <https://lex.uz/docs/-4758585> (murojaat sanasi: 19.08.2026).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – LexUZ. – URL: <https://lex.uz/docs/-8050769> (murojaat sanasi: 19.08.2026).
8. Porter M. E. *The Competitive Advantage of Nations*. – New York: Free Press, 1990.



9. Krugman P. *Geography and Trade*. – Cambridge, MA: MIT Press, 1991.
10. OECD. *Insights on the Business Climate in Uzbekistan*. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 79 p. – DOI: 10.1787/317ce52e-en. – URL: <https://doi.org/10.1787/317ce52e-en> (murojaat sanasi: 19.08.2026).
11. World Bank Group. *Uzbekistan – World Bank Enterprise Survey 2024* [Elektron resurs]. – Washington, DC: World Bank Group, 2025. – Ref.: UZB_2024_WBES_v01_M. – URL: <https://microdata.worldbank.org/index.php/catalog/6711> (murojaat sanasi: 19.08.2026).
12. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). *Industrial Development Report 2022: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World*. – Vienna: UNIDO, 2021. – URL: <https://www.unido.org/idr-2022> (murojaat sanasi: 19.08.2026).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>